

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

A K A D E M I Y A

MA’MURIY HUQUQ

FANIDAN

CHIZMALAR ALBOMI

Umumiy qism

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining
Tahririyat-noshirlik hay’atida ma’qullangan*

Tuzuvchi-mualliflar:

N.T. Ismoilov, Z.Y. Babakalanov, S.S. Rustamov,
D.D. Babayev, S.M. Selimanova

Taqrizchilar:

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti Huquqshunoslik
fakulteti konstitutsiyaviy huquq kafedrasida dotsenti, y.f.n., dotsent

M. H. Shotursunov;

IIV Akademiyasi davlat va huquq nazariyasi kafedrasida boshlig‘i o‘rinbosari,
y.f.n., dotsent **N. P. Azizov**

M – 38. Ma’muriy huquq fanidan chizmalar albomi. Umumiy qism.
– T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 124 b.

Mazkur chizmalar albomi ma’muriy huquq fanining umumiy qismiga oid bo‘lib, mavzularning savollari chizmalar orqali qisqa va ko‘rgazmali shaklda yoritilgan. Qo‘llanma ma’muriy huquqqa doir yangi qonunlar va shu sohadagi olimlarning fikr-mulohazalari bilan boyitilgan.

Ushbu qo‘llanma IIV Akademiyasining tinglovchi va kursantlari hamda ma’muriy huquq bilan qiziquvchi kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

BBK 67.99 (5U) 1ya73

SO‘Z BOSHI

Bugungi kundagi, davlatimiz tomonidan qabul qilingan, kadrlar tayyorlash milliy dasturi deb nom olgan ta‘lim sohasini isloh qilish dasturi mamlakatimizda yangi jamiyat qurishning bosqichma-bosqich va tadrijiy rivojlanish prinsipiga asoslangan iqtisodiy va siyosiy islohotlarning davlatimiz tanlagan “o‘zbek modeli” – taraqqiyot yo‘lining ajralmas tarkibiy qismidir. Ta‘lim sohasini isloh etish va malakali kadrlar tayyorlash dasturini amalga oshirish bo‘yicha o‘tgan davrda bajarilgan ishlarni bugun qandaydir o‘lchov va raqamlar bilan baholab bo‘lmaydi albatta.

Shuni qayd etish joizki, aynan ta‘lim sohasini isloh etishda, ya‘ni qator akademik ilmiy muassasalarni universitetlar ixtiyoriga berish va hamkorlikda foydalaniladigan oliy o‘quv yurtlararo zamonaviy ilmiy laboratoriya majmualarini tuzish hisobidan oliy o‘quv yurtlarining ilmiy salohiyatini mustahkamlash va innovatsion faoliyatga asoslangan o‘quv jarayonini integratsiyalashtirish hozirgi bosqichda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mutaxassislarni tayyorlash sifati va ularning real iqtisodiyotda talab etilishi masalalari bizning doimiy e‘tiborimiz markazida bo‘lib kelmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan Dastur – bu boshqa modellarni qandaydir takrorlash yoki ulardan nusxa ko‘chirish emas, aksincha, birinchi navbatda, rivojlangan demokratik davlatlarda to‘plangan tajribani o‘zida mujassam etgan va ayni paytda shiddat bilan o‘zgarib borayotgan hozirgi zamon talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan dasturdir.

Mamlakatimizda ta‘lim tizimini isloh qilish dasturini joriy etish bo‘yicha amalga oshirilgan va amalga oshirilayotgan barcha ishlar birinchi navbatda O‘zbekistonning uzoq muddatli manfaatlariga, uning hozirgi ancha murakkab rivojlanish bosqichining mavjud holati va xususiyatlariga javob beradi¹.

Mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan mazkur chizmalar albomi ma‘muriy-huquqiy qonunchilikning yuridik mazmunini va ijtimoiy-siyosiy mohiyatini, uning normalari va institutlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni yoritishni, ularni ilmiy tahlil qilish usullariga ega bo‘lishni nazarda tutuvchi «Ma‘muriy huquq» fanini o‘rganishni o‘z ichiga qamrab oladi. Shuningdek, tinglovchilarni nazariy bilim asoslarini chizma va sxemalar orqali

shakllantirishga, ularning huquqiy normalarni to‘g‘ri talqin qilish va qo‘llash uchun zarur bo‘lgan bilimlarni egallashiga, hamda ma‘muriy huquq sohasida vujudga keladigan huquqiy vaziyatlarni mutaxassis sifatida hal qilish malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ushbu qo‘llanmada ma‘muriy huquq fanining umumiy qismini o‘rganishga qaratilgan asosiy vazifalar, nazariy tushunchalar, tamoyillar, qoidalar, g‘oyalari va qarashlar chizmalar shaklida berilgan hamda ma‘muriy huquq fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligini, foydalaniladigan asosiy va qo‘shimcha adabiyotlarni inobatga olgan. Shuningdek, o‘quv qo‘llanmada 22 ta mavzuni 100 dan ortiq chizmalarda o‘rganiladigan savollar yoritilgan. Savollar mantiqiy ketma-ketlikda tuzilgan. Savollardan so‘ng, mashg‘ulotlarda foydalaniladigan ma‘muriy-huquqiy hujjatlar, qonunlar, ma‘muriy huquq sohasi olimlarining ilmiy asarlari, darslik va qo‘llanmalardan iborat bo‘lgan adabiyotlar ilova qilingan.



Chizmalar albomini tayyorlashda mualliflar davlat boshqaruvi sohasida hamda ma‘muriy qonunchilikdagi keyingi yillardagi o‘zgarishlarni inobatga olishgan.




Chizmalar albomida mavzular qisqa, aniq va ravon tushunchalar orqali yoritilgan. Bu fanni o‘zlashtirish, har bir mavzu yuzasidan aniq tushunchaga ega bo‘lishda alohida ahamiyatga egadir. O‘quv qo‘llanmadan auditoriya, ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlarda, shuningdek, fan bo‘yicha dasturda ifodalangan maqsad va vazifalarni bajarish yuzasidan tinglovchilarning mustaqil ishlarini tashkil qilishda ham foydalanish mumkin.

¹ *Каримов И. А.* Юксак билимли ва интеллектуал ривожланган авлодни тарбиялаш – мамлакатни барқарор тараққий эттириш ва модернизация қилишнинг энг муҳим шarti // Халқ сўзи. – 2012. –18 фев.



1-mavzu. MA’MURIY HUQUQ FANINING TUSHUNCHASI, PREDMETI VA TIZIMI

1. Ijtimoiy va davlat boshqaruvlarining tushunchasi xususiyatlari







2. Ma'muriy huquq tushunchasi, predmeti va tizimi





1. Ma'muriy-huquqiy norma tushunchasi, turlari, tuzilishi va o'ziga xos xususiyatlari




MA'MURIY-HUQUQIY NORMALARNING TURLARI





MA'MURIY-HUQUQIY NORMALARNI AMALDA JORIY ETISHNING SHAKLLARI



2. Ma'muriy-huquqiy munosabatlar tushunchasi, turlari va elementlari (tuzilishi)



MA’MURIY-HUQUQIY MUNOSABATLAR ISHTIROKCHILARINING XUSUSIYATLARI

ushbu munosabatlarning tomonlardan biri – hamma vaqt vakolatlari berilgan ijro etuvchi hokimiyat organi yoki uning mansabdor shaxslari

ma’muriy-huquqiy munosabatlarning tomonlaridan biri qaror (farmoyishlar) qabul qilish va majburlov choralarini qo‘llashga haqli, chunki ular tegishli davlat-hokimiyat vakolatiga ega


ko‘pgina ijro etuvchi hokimiyat organlari va ularning mansabdor shaxslari davlat nomidan ish ko‘rib, normativ hujjatlarni qabul qilish huquqiga ega

ma’muriy-huquqiy munosabatlar tomonlardan birining tashabbusi bilan yuzaga kelishi mumkin, lekin ikkinchi tomonning roziligi (xohishi) majburiy hisoblanmaydi


ma’muriy-huquqiy munosabatlarning ishtirokchilari o‘rtasida yuzaga keladigan nizolar ko‘p hollarda vakolatli ijro etuvchi hokimiyat organining bevosita yuridik hokimiyat va bir tomonlama farmoyish yo‘li bilan ma’muriy (sud bilan bog‘liq emas) tartibda hal etiladi

tomonlardan biri normativ talablarni buzgan hollarda davlat va uning organlari oldida javobgarlikni yuzaga keltiradi

Ma’muriy-huquqiy munosabat elementlari




Ma’muriy-huquqiy munosabatlarning subyekt – boshqaruv funksiyasini amalga oshirish bo‘yicha ma’muriy-huquqiy normalar bilan ma’lum bir majburiyatlar yuklatilgan va davlat-hokimiyat vakolatiga ega shaxslar



Ma’muriy-huquqiy munosabatlarning obyekt – davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirish jarayonida ma’muriy huquq subyektlarini xatti-harakatlari yig‘indisi, ya’ni ularning ijobiy yoki salbiy xulq-atvorlari



Subyektiv huquq va yuridik majburiyatlar Subyektiv huquq va yuridik majburiyatlar huquqiy munosabatlarning mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Chunki, ularni o‘zaro bog‘liqlikda tahlil etish orqali huquqiy munosabatning tabiati va maqsadi haqida tasavvur hosil qilish mumkin



Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning mazmuniga ko'ra turlari

Moddiy ma'muriy-huquqiy munosabatlar – boshqaruv sohasida yuzaga keluvchi va ma'muriy huquqning moddiy normalari bilan tartibga solinuvchi ijtimoiy munosabatlar kiradi

Ma'muriy-protsessual munosabatlar – boshqaruv sohasida individual-aniiq ishlar hal qilinishi tufayli yuzaga keladigan va ma'muriy-huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan munosabatlardir

Masalan, fuqarolarning arizalari va shikoyatlarini ijro etuvchi hokimiyat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan hal qilish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar ma'muriy-protsessual munosabatlar hisoblanadi. Moddiy va protsessual ma'muriy-huquqiy munosabatlarning o'zaro aloqasi shundan iboratki, moddiy munosabatlar protsessual munosabatlar vositasida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, protsessual ma'muriy-huquqiy munosabatlar vositasida huquqning boshqa tarmoqlari (moliya, yer, ekologiya va boshqa) huquqiy munosabatlari ham hayotga joriy etiladi.

Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning turlari: ishtirokchilarning huquq va majburiyatlarining o'zaro nisbatiga ko'ra

Horizantal ma'muriy-huquqiy munosabatlar – bir-biriga bo'ysunmaydigan subyektlar o'rtasida vujudga keladi. Bunday munosabatlar ijro etuvchi hokimiyatning bir-biriga bo'ysunmaydigan organlari, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolar o'rtasida ular boshqaruv sohasidagi o'z huquqlarini ro'yobga chiqarishlari munosabati bilan vujudga keladi

Vertikal ma'muriy-huquqiy munosabatlar – bir munosabat subyektining boshqasiga bo'ysunishi doirasida – ijro etuvchi hokimiyatning yuqori turuvchi va quyi turuvchi organlari o'rtasida, ijro etuvchi hokimiyat organlari va tobe tashkilotlar o'rtasida, ijro etuvchi hokimiyat organlarining biri boshqasiga bo'ysunuvchi tuzilmalari o'rtasida; biri boshqasiga bo'ysunuvchi davlat xizmati xodimlari o'rtasida yuzaga keladi

3-mavzu. IJRO ETUVCHI HOKIMIYAT ORGANLARI – MA'MURIY HUQUQ SUBYEKTI SIFATIDA

1. Ma'muriy huquq subyektlari tushunchasi

Ma'muriy huquq subyektini

Ma'muriy huquq subyektini – ma'muriy huquq normalari orqali berilgan vakolatlarni amalga oshirish huquqi va majburiyatlariga ega jismoniy shaxs yoki yuridik shaxs

Ma'muriy-huquqiy munosabatlar subyektini – davlat boshqaruvi sohasida huquq va majburiyatlarga ega, boshqaruv munosabatlarining ishtirokchilari hisoblangan jismoniy shaxs yoki yuridik shaxs

Ma'muriy huquq subyektlari ma'muriy-huquqiy munosabatlar subyektini bo'lishi uchun shartlar

Subyektlarning huquq va majburiyatlarini nazarda tutuvchi ma'muriy huquq normalar


Subyektning ma'muriy-huquqiy layoqati va muomala layoqati

Huquqiy munosabatlarning yuzaga kelishi, o'zgarishi va tugatilishi uchun asoslar


Ma'muriy-huquqiy layoqat – subyektning ma'muriy-huquqiy munosabatlarga kirishishi uchun davlat tomonidan o'rnatiladigan va qo'riqlanadigan imkoniyati


Ma'muriy muomala layoqati – subyektning o'z harakatlari, ma'muriy-huquqiy munosabatlar doirasida huquq va majburiyatlarga ega bo'lish layoqati

Ma'muriy huquq subyektlarining tizimi




Davlat organi tushunchasi, turlari va belgilari







Ijro etuvchi hokimiyat organi tushunchasi, huquqiy maqomi va o'ziga xos xususiyatlari



Ijro etuvchi hokimiyat organlarining turlari



3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti



DAVLAT XIZMATINING TUSHUNCHASI VA MAZMUNI

Davlat xizmatining tushunchasi va mazmuni

Davlat xizmati – davlat organlari tomonidan boshqaruvning kadrlar funksiyasini amalga oshirish, davlat organlari apparatida doimiy yoki vaqtincha mansabni egallab turgan hamda davlat byudjetidan mablag‘ bilan ta‘minlanadigan barcha shaxslarning faoliyatidir

DAVLAT XIZMATINING HUQUQIY ASOSLARI

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

O‘zbekiston Respublikasi qonunlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari

O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati boshqa organlarining me‘yoriy hujjatlari

Davlat organlarining Nizom va Ustavlari

4-mavzu. **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT XIZMATI**
DAVLAT XIZMATCHILARI – MA‘MURIY HUQUQ SUBYEKTI SIFATIDA

1. Davlat xizmati tushunchasi va prinsiplari.
Davlat xizmatini o‘tashning umumiy tartibi

DAVLAT XIZMATINING HUQUQIY ASOSLARI

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

O‘zbekiston Respublikasi qonunlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari

O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati boshqa organlarining me‘yoriy hujjatlari




Davlat organlarining Nizom va Ustavlari

DAVLAT XIZMATINING TUSHUNCHASI VA MAZMUNI

Davlat xizmatining tushunchasi va mazmuni


Davlat xizmati – davlat organlari tomonidan boshqaruvning kadrlar funksiyasini amalga oshirish, davlat organlari apparatida doimiy yoki vaqtincha mansabni egallab turgan hamda davlat byudjetidan mablag‘ bilan ta‘minlanadigan barcha shaxslarning faoliyatidir

2. Davlat xizmatchilari tushunchasi, turlari va ularning huquqiy holati



Davlat xizmatining vazifalari


Davlat organining huquqiy maqomiga, davlat xizmatchisining qanday mansab va lavozimni egallab turganiga bog’liq bo’ladi.
Yuridik adabiyotlarda davlat xizmatining vazifalariga deyarli barcha huquqshunos olimlar bir xilda yondoshgan. Ularning fikricha, davlat xizmatining asosiy vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:
konstitusiyaviy tuzumni himoya qilish, fuqarolik jamiyati qurish uchun shart-sharoitlar yaratib berish, ishlab chiqarish, shaxsning erkin xayot kechirishini ta’minlash, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;
davlat organlari oldida turgan funksiyalarning amalga oshirilishi uchun ijtimoiy-siyosiy va davlat-huquqiy sharoitlarni tashkil etish;
davlat organlariga berilgan vakolatlardan kelib chiqqan holda ularning samarali faoliyatini ta’minlash;
davlat xizmati va davlat xizmatchilarining professional faoliyati sharoitlarini takomillashtirish.



DAVLAT XIZMATINI O'TASH

Davlat xizmatini o'tash instituti – boshqaruv apparatiga xodimlarni tanlashdan, xizmat bo'yicha harakatlanishni amalga oshirishdan, davlat xizmatidan bo'shatish usullarini o'rnatish va amalga oshirishdan boshlanadi. Davlat xizmatini o'tash davlat xizmati institutining asosiy elementi bo'lib, unda davlat xizmatchilarining huquqiy maqomi amalga oshiriladi. Davlat xizmatini o'tash – siyosiy va ma'muriy davlat lavozimlarini to'ldirish faoliyati bo'lib, davlat ma'muriyatida mansablarning davlat xizmatchilari o'rtasida ketma-ketlikda almashinuvini, davlat-xizmat huquqiy munosabatlari o'zgarishini o'z ichiga oladi. Har bir davlat xizmatchisi yakka tartibdagi lavozim (xizmat) yo'nalishiga egadir. Shuning uchun ham amalda davlat xizmatini o'tash ham individualdir.


3. Ichki ishlar idoralarida xizmat o'tash tartibi, o'ziga xos xususiyatlari






5-mavzu. JAMOAT BIRLASHMALARI VA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI – MA'MURIY HUQUQ SUBYEKTI SIFATIDA


1. Jamoat birlashmalari tushunchasi, turlari, ularning huquqiy holati va vazifalari



Mahalliy jamoat birlashmalari



Jamoat birlashmalarini bir qancha guruhlarga ham bo'lish mumkin:




Siyosiy partiya O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmasidir (O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida" gi 1996-yil 26-dekabr qonunining 1-m.)

Siyosiy partiyalar faoliyatining prinsiplari:

- partiyaga ixtiyoriy ravishda kirish va chiqish
- azolarining teng huquqliligi
- o'zini o'zi boshqarish
- oshkoralik

Siyosiy partiyalarning huquqlari (Siyosiy partiyalar to'g'risidagi qonunning 12-moddasi):



2. Nodavlat notijorat tashkilotlarining tushunchasi, turlari, ularning huquqiy holati va vazifalari

O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi 1999-yil 14-aprel qonunining 2-moddasi

Nodavlat notijorat tashkiloti – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkilotidir

Nodavlat notijorat tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy shakllari (qonunning 10-moddasi):

jamoat birlashmasi;

ijtimoiy fond;

qonunlarda nazarda tutilgan boshqa shaklda tashkil etilishi mumkin

"Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonuni

Jamoat birlashmasi
(11-m.)

Ma'naviy yoki boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish uchun o'z manfaatlarining mushtarakligi asosida qonunda belgilangan tartibda birlashgan fuqarolarning ixtiyoriy birlashmasi jamoat birlashmasi deb e'tirof etiladi.

Jamoat fondi
(12-m.)

Jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar qo'shish asosida tashkil etilgan, xayriya, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ko'zlaydigan, a'zolari bo'lmagan nodavlat notijorat tashkiloti jamoat fondi deb e'tirof etiladi.

Muassasa
(13-m.)

Ijtimoiy, madaniy va boshqa notijorat tushadigan vazifalarni amalga oshirish uchun jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan tuzilgan nodavlat notijorat tashkiloti muassasa deb e'tirof etiladi.

Xalqaro nodavlat notijorat tashkiloti
(14-m.)

O'z ustaviga va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida hamda bitta yoki undan ko'proq chet el davlati hududida faoliyat olib borishi mumkin bo'lgan xalqaro tashkilot xalqaro nodavlat notijorat tashkiloti deb hisoblanadi.

3. Jamoat birlashmalarining jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 19-apreldagi «Jazoni o'tash joylaridan ozod qilingan shaxslarga ijtimoiy-maishiy jihatdan va ishga joylashishda yordam ko'rsatish bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va hokimliklar huzuridagi maxsus komissiyalar, «Mahalla posboni» jamoat tuzilmalari va Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huzuridagi yarashtirish komissiyalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida»gi 180-sonli qarori

"Mahalla posboni" jamoat tuzilmasining maqsadi

fuqarolarning faolligini oshirish yo'li bilan huquqiy demokratik davlat qurish jarayonini jadallashtirish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining davlat boshqaruv tizimining ayrim vakolatlarini bajarishiga keng yo'l ochish, osoyishtalikni ta'minlash, huquq-tartibotni mustahkamlashda davlat idoralari bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining hamkorlikda ish olib borishini ta'minlash, aholining o'zaro hamjihatligini oshirishdan iboratdir

"Mahalla posboni" jamoat tuzilmasiga

fuqarolar yig'ini kengashining qaroriga binoan ongli ravishda vatan va xalq manfaatlari yo'lida sadoqat bilan beg'araz xizmat qilishga tayyor, jismoniy va ma'naviy sog'lom, pok, iymon-e'tiqodli, yuksak insoniy va axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan, jinoyatchilikning oldini olish va jamoat tartibini saqlashda huquq-tartibot organlariga ko'ngilli ravishda yordam berish istagini bildirgan tegishli mahallada istiqomat qiluvchi 18 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari qabul qilinadilar

«MAHALLA POSBONI»NING VAZIFALARI


fuqarolarning, ayniqsa voyaga yetmaganlar va yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, mahalla hududida qonun ustuvorligini va osoyishtalikni ta'minlash, jamiyatda yurish-turish qoidalariga va axloq-odob mezonlariga rioya qilinishini, jamoat tartibi saqlanishini ta'minlash, mahallada tartib o'rnatish bilan bog'liq bo'lgan boshqa ishlar;

muayyan hududda istiqomat qiluvchi fuqarolar tomonidan pasport rejimiga amal qilinishini tekshirish va nazorat qilish;


aholi o'rtasida yong'in va harakat xavfsizligiga rioya qilish yuzasidan tushuntirish ishlari olib borish;

1. Jismoniy shaxslar – ma’muriy huquqning subyekti sifatida

**Fuqarolarni huquqiy maqomini
belgilovchi asosiy huquqiy
manb’alar:**



**Jismoniy shaxslar – ma’muriy
huquqning subyekti sifatida**



mahallada ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish maqsadida ichkilikbozlik va giyohvandlikka ruju qo‘yganlarni, oila-turmush doirasida muntazam huquqbuzarliklar sodir etuvchilarni, o‘zlarining jamiyatga zid xatti-harakatlari bilan farzandlari tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi yoki ular tarbiyasi bilan shug‘ullanmaydigan otalarni, notinch oilalarni, voyaga yetmaganlarni turli huquqbuzarliklar sodir etishga undovchi shaxslarni, yoshlar ongini zaharlab, ularni turli diniy – ekstremistik g‘oyalar ta’siriga olish maqsadida bunday tashkilotlarga a’zo bo‘lishga da’vat etuvchi, turli noqonuniy targ‘ibot va tashviqot ishlari olib boruvchi shaxslarni, o‘smirlarga qonunga xilof ravishda diniy ta’lim beruvchilarni, konstitusion qonuniy tuzimga qarshi turli bo‘htonlarni tarqatuvchi shaxslarni aniqlash va ular bilan profilaktik-tarbiyaviy tushuntirish ishlari olib borish;

ichki ishlar idoralari hisobida turuvchi, tarbiyasi og‘ir voyaga yetmaganlar bilan aniq maqsadli profilaktik tadbirlar olib borish;

mahallalarni obodonlashtirish yuzasidan turli hasharlar va tadbirlarni amalga oshirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2004-yil 25-maydagi PF-3434-sonli farmoni;
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi 2004-yil 29-iyundagi 229-sonli qarori.

Diniy-ma’rifat va ma’naviy-axloqiy, tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchilarning vazifalari:




xotin-qizlar va yoshlarning orasida milliy, diniy an’analarni tushuntirish va ularga rioya qilish, ularning ekstremistik oqimlar ta’siriga tushib qolishini oldini olish;

mahallada O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi 1998-yil 1-maydagi qonunning mohiyatini tushuntirish yuzasidan profilaktik tadbirlar o‘tkazish;


xotin-qizlar ishi bilan ta’minlash masalalarini tegishli idoralar bilan hal etish;

diniy ekstremizm va aqidaparastlikning mamlakatimizdagi osoyishta hayot va ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni buzishga qaratilgan, g‘ayriinsoniy, zararli g‘oyalarini jamiyatda tarqalishiga qarshi kurashish;




Profilaktika inspektorlari bilan hamkorlikda mahallalarda xotin-qizlar, voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat va huquqbuzarliklar sodir etilishi oldini olish bo‘yicha tegishli profilaktik ishlarni amalga oshirish.





2. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining ma'muriy-huquqiy maqomi




3. Davlat boshqaruvi sohasida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquq va majburiyatlari



4. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquqiy holati




1. Davlat boshqaruvi foliyatining shakllari tushunchasi va turlari



2. Davlat boshqaruvi faoliyatining huquqiy va nohuquqiy shakllari

Davlat boshqaruvi shakllarining turlari – huquqiy va nohuquqiy bo’ladi




3. Davlat boshqaruv faoliyatidagi huquqiy hujjatlar tushunchasi va yuridik ahamiyati


Boshqaruvning huquqiy hujjatlari deganda – ijro hokimiyati subyektlarining bir tomonlama hokimiyat ko’rsatmalarini ifodalash, yuridik okibatlarini vujudga keltirish va bajarilishi majburiy bo’lgan aktlar tushuniladi.




Boshqaruv huquqiy hujjatlarining tasnifi



II. Boshqaruv hujjatining funksional vazifasi va axamiyatiga ko‘ra:




III. Boshqaruv aktlarini qo‘llash sohasiga ko‘ra:




IV. Makon (hududda) harakatiga









V. Boshqaruv hujjatining harakatga kelish vaqtiga ko‘ra:




VI. Boshqaruv hujjatlarining harakatda bo‘lishiga ko‘ra:







8-mavzu. DAVLAT BOSHQARUVI FAOLIYATINING USULLARI

1. Davlat boshqaruvi faoliyatidagi usullar tushunchasi va o'ziga xos xususiyatlari







2. Davlat boshqaruvi faoliyati usullarining turlari



3. Ishontirish – davlat boshqaruvining asosiy usuli sifatida



Ishontirishda rag'batlantiruvchi usullar:



Ishontirishda



Tarbiyalovchi usul

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 2-moddasiga ko'ra, ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun xujjatlari boshqa vazifalar bilan bir qatorda, fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalashni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi.


Tushuntiruvchi usul

Turli namoyishlar o'tkazish, davlatning mansabdor shaxslarining ommaviy chiqishlari, ijtimoiy-huquqiy mazmundagi ko'rsatuvlar, filmlar namoyish qilish va boshqa vositalar bilan ifodalanadi.


1. Ma'muriy majburlash tushunchasi va uning turlari





2. Ma'muriy oldini olish choralari




3. Ma'muriy cheklash choralari




1. Ma’muriy huquqbularlik tushunchasi va yuridik xususiyatlari




2. Ma’muriy huquqbularlikni yuridik tarkibi va turlari







11-mavzu. MA'MURIY JAVOBGARLIK


1. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlari va prinsiplari




2. Ma'muriy javobgarlik tushunchasi va uning asosiy xususiyatlari



Ma'muriy javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar




Ma'muriy javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlar




12-mavzu. MA'MURIY JAVOBGARLIK TO'G'RISIDAGI KODEKSNING MAXSUS QISMIDA BELGILANGAN HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN MA'MURIY JAVOBGARLIK

1. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning maxsus qismida belgilangan huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikning tasniflanishi





Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning maxsus qismida belgilangan huquqbuzarliklar

V bob. Fuqarolarning huquq va erkinliklariga tajovuz qiladigan huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik	40-moddadan boshlab 51-moddalarni o'z ichiga olgan ma'muriy huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan. Mazkur bobda jami 17 ta ma'muriy huquqiy norma mavjud.
VI bob. Aholi sog'lig'ini saqlash sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik	ushbu bobda 52-59-moddalarni o'z ichiga olgan ma'muriy huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan. Mazkur bobda jami 8 ta ma'muriy huquqiy norma mavjud.
VII bob. Mulikka tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik	ushbu bobda 60-64-moddalarni o'z ichiga olgan ma'muriy huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan. Mazkur bobda jami 5 ta ma'muriy huquqiy norma mavjud.
VIII bob. Tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik	ushbu bobda 65-96-moddalarni o'z ichiga olgan ma'muriy huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan. Mazkur bobda jami 33 ta ma'muriy huquqiy norma mavjud.
IX bob. Sanoatdagi, qurilishdagi va issiqlik hamda elektr energiyasidan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik	ushbu bobda 97-103-moddalarni o'z ichiga olgan ma'muriy huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan. Mazkur bobda jami 7 ta ma'muriy huquqiy norma mavjud.



2. Jamoat tartibiga, boshqaruvning belgilangan tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik




**BOSHQARUVNING BELGILANGAN TARTIBIGA TAJOVUZ QILUVCHI
HUQUQBUZARLIKLAR**

Deputatlik faoliyatining kafolatlarini buzish (193-m.)	Milisiya xodimlarining o'z xizmat burchlarini bajarishlariga qarshilik ko'rsatish (195-m.)
Milisiya xodimining qonuniy talablarini bajarmaslik (194-m.)	Huquqbuzarlik sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etish yuzasidan milisiyaning yozma taqdimnomalarini bajarish choralarini ko'rmaslik (196-m.)
Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchilarining qonuniy talablarini bajarmaslik va ularning qonuniy faoliyatiga qarshilik ko'rsatish (196 ¹ -m.)	Prokurorning qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilish va uning talablarini bajarmaslik (197-m.)
Advokatning professional faoliyatiga to'sqinlik qilish (197 ¹ -m.)	Notariusning kasbiy majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qilish (197 ² -m.)
Hokimiyat vakilining qonuniy talablarini bajarmaslik yoki xizmat vazifalarini bajarishiga to'sqinlik qilish (198-m.)	Qarzdorning ijro hujjatini ijro etmasligi (198 ¹ -m.)
Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik (198 ² -m.)	199-modda. Maxsus xizmatlarni qasddan aldab chaqirganlik
O'zboshimchalik (200-m.)	Ommaviy tadbirlar o'tkazish qoidalarini buzish (200 ¹ -m.)
Yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki namoyishlar uyushtirish, o'tkazish tartibini buzish (201-m.)	Ruxsat etilmagan yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari va namoyishlar o'tkazish uchun sharoitlar yaratish (202-m.)
G'ayriqonuniy nodavlat notijorat tashkilotlari, oqimlar, sektalarning faoliyatida qatnashishga undash (202 ¹ -m.)	Bayroqlar va vimpellardan g'ayriqonuniy foydalanish, plakatlar, emblemalar va ramzlarni tayyorlash, tarqatish yoki taqib yurish (203-m.)


**BOSHQARUVNING BELGILANGAN TARTIBIGA TAJOVUZ QILUVCHI
HUQUQBUZARLIKLAR**

Davlat ramzlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish (203 ¹ -m.)	Favqulodda holat tartibining talablarini buzish (204-m.)
Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, shuningdek fuqaro muhofazasi to'g'risidagi qonun hujjatlari talablarini bajarmaslik (204 ¹ -m.)	Favqulodda holat tartibi sharoitida jamoat tartibiga tajovuz qilish (205-m.)
Ma'muriy nazorat qoidalarini buzish (206-m.)	Voyaga yetmaganni qarovga olish to'g'risidagi yozma majburiyatni bajarmaslik (207-m.)
Kafilning yozma majburiyatni bajarmasligi (208-m.)	Davlat mukofotlariga nisbatan qonunga xilof harakatlar qilish (209-m.)
Qamoqda saqlash joylarida, jazoni ijro etish muassasalarida, maxsus davolash-oldini olish yoki maxsus o'quv-tarbiya muassasalarida saqlanayotgan shaxslarga taqiqlangan narsalarni berish (210-m.)	Yong'in xavfsizligi qoidalarini buzish (211-m.)
Standartlarni buzish (212-m.)	Metrologiya qoidalarini buzish (213-m.)
Sertifikatlashtirish qoidalarini buzish (214-m.)	Davlat statistik hisobotlarini taqdim etish tartibini buzish (215-m.)
Yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki namoyishlar uyushtirish, o'tkazish tartibini buzish (201-m.)	Korxonaning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi materiallarni taqdim etish tartibini buzish (215 ¹ -m.)
O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining ko'rsatmalarini bajarmaslik (215 ² -m.)	Soliq to'lovchilarning majburiyatlari yuzaga kelganligi to'g'risida axborot taqdim etish tartibini buzish (215 ³ -m.)


BOSHQARUVNING BELGILANGAN TARTIBIGA TAJOVUZ QILUVCHI HUQUQBUZARLIKLAR




BOSHQARUVNING BELGILANGAN TARTIBIGA TAJOVUZ QILUVCHI HUQUQBUZARLIKLAR




1. Ma'muriy jazo tushunchasi va turlari



2. Ma'muriy jazo qo'llashning umumiy qoidalari





3. Ichki ishlar idoralari tomonidan qo'llaniladigan ma'muriy jazo choralari

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining moddalarida asosida	
Ma'muriy jazo choralari turlari	Qo'llash vakolatiga ega davlat organlari
Jarima	245-268 ² -moddalarida ko'rsatilgan organlar 245 ² , 249 ¹ -moddalarida ko'rsatilgan organlar bundan mustasno
Haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish	245-modda. Ma'muriy ishlar bo'yicha sudya
Musodara qilish	1) 245-modda. Ma'muriy ishlar bo'yicha sudya 2) 262-modda. Bojxona organlari 3) 264-modda. O'z.R. Bosh Prokuraturasi huzur. Soliq, valyuta.oid jinoyatlarga va jinoyiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash departamenti
Maxsus huquqdan mahrum qilish	245-modda. Ma'muriy ishlar bo'yicha sudya
Ma'muriy qamoqqa olish	1) 245-modda. Ma'muriy ishlar bo'yicha sudya <i>Favqulodda holatda:</i> 2) 248-modda. Ichki ishlar organlari 3) 205-modda. Harbiy komendant
O'zbekiston respublikasi hududidan ma'muriy tarzda chiqarib yuborish	248-modda. Ichki ishlar organlari
O'zbekiston Respublikasi MJTKning 248-moddasiga asosan Ichki ishlar (milisiya) organlari tomonidan ayrim huquqbuzarliklar bo'yicha ishni ko'rib chiqish va jarima ma'muriy jazo chorasini qo'llash vakolati belgilangan	
<ul style="list-style-type: none"> - Temir yo'l transportida harakat xavfsizligi qoidalarini buzish (113-m. 1,2,4,5,- q); - Temir yo'l transporti vositalaridan foydalanish qoidalarini buzish (114-m.); - Metropolitendan foydalanish qoidalarini buzish (115-m.); - Uchish xavfsizligi qoidalarini buzish (116-m. 1,3,4-q.); - Transport vositalarining ichki jihozlariga shikast etkazish (121-m.); - Transportda belgilanmagan joylarda chekish (122-m.); - Transport vositalaridan axlat yoki boshqa narsalarni tashlab yuborish (123-m.); - Transport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzish (125-m.); - Yuk tashish qoidalarini, shatakka olish qoidalarini buzish (125¹-m. 1-q.); - Ko'z gusimon va tusi o'zgartirilgan (qoraytirilgan) nostandart oynalar o'rnatilgan transport vositalaridan foydalanish (126-m.); - Transport vositalarining tovush chiqaruvchi va yorituvchi qurilmalaridan foydalanish qoidalarini buzish (127-m. 1-q.); - Transport vositalari haydovchilarining harakat tezligini oshirib yuborishi, yo'l belgilari va yo'l harakatining boshqa qoidalarini talablariga rioya qilmasligi (128-m. 1,2,3-q.); - Transport vositasini boshqarish vaqtida haydovchilarning telefondan foydalanishi (128¹-m. 1-q.); 	

- Transport vositasini boshqarish paytida monitordan (displaydan) tele, videodasturlarni tomosha qilish uchun foydalanish va transport vositasiga o'zboshimchalik bilan monitor (display) o'rnatish (128²-m. 1,2-q);
- Transport vositalari haydovchilarining belgilangan harakat tezligini oshirib yuborishi (128³-m. 1,2-q);
- Transport vositalari haydovchilarining svetoforning taqiqllovchi signaliga yoki yo'l harakatini tartibga soluvchining taqiqllovchi ishorasiga bo'ysunmasdan o'tishi (128⁴-m.1,2-q);
- Transport vositalari haydovchilarining xalaqit berishi yoki avariya holatini yuzaga keltirishi, yo'lning qarama-qarshi harakatlanish uchun mo'ljallangan tomoniga yoki bo'lagiga chiqishi (128⁵-m. 1,2-q);
- Transport vositalari haydovchilarining to'xtash yoki to'xtab turish qoidalarini buzishi (128⁶-m.);
- Transport vositalari haydovchilarining harakat xavfsizligiga tahdid soluvchi guruh bo'lib harakat qilishda qatnashishi (129-m. 1-q.);
- Transport vositalari haydovchilarining temir yo'lning o'tish joylaridan o'tish qoidalarini buzishi (130-m. 1-q.);
- Boshqarish huquqini beruvchi hujjatlari bo'lmagan shaxslarning transport vositalarini boshqarishi (135-m.);
- Transport vositalari egalarning fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablarini buzish (135¹-m.);
- Transport vositalari haydovchilarining mastligi yoki mast emasligini aniqlash uchun tekshiruvdan o'tishdan bo'yin tovlashi (136-m.3-q.);
- Piyodalar va yo'l harakati boshqa ishtirokchilarining harakat qoidalarini buzishi (138-m.);
- Nosoz transport vositalarini yo'lga chiqarish va transport vositalaridan foydalanish qoidalarini boshqacha tarzda buzish (139-m.);
- Mast holdagi haydovchilarning yoki transport vositalarini boshqarish huquqi bo'lmagan shaxslarning transport vositalarini boshqarishiga yo'l qo'yish (140-m.);
- Transport vositalaridan shaxsiy boylik orttirish maqsadida foydalanish (141-m.);
- Xavfli moddalar va alyolarni transportda tashish qoidalarini buzish (142-m. 1,3-m);
- Transportda chiptasiz yurish (144-m.);
- Yo'lovchilarni chiptasiz tashish (145-m.);
- Havo, temir yo'l, suv va avtomobil transportida yuklarning saqlanishini ta'minlash qoidalarini buzish (146-m. 1,2-q);
- Yo'llarga, yo'l inshootlariga, yo'l harakatini tartibga solib turuvchi texnik vositalarga shikast etkazish, ularni saqlash qoidalarini buzish (147-m.);
- Avtomat telefonlarni shikastlantirish (156-m.);
- Shaharlarni va boshqa aholi punktlarini obodonlashtirish qoidalarini buzish (161-m.);
- Mayda bezorilik (183-m.);
- Jamoat joylarida spirtli ichimliklar ichish (187-m. 1-q.);
- Maishiy shovqinga qarshi kurash talablarini buzish (192-m.);
- Favqulodda holat tartibining talablarini buzish (204-m.);
- Favqulodda holat tartibi sharoitida jamoat tartibiga tajovuz qilish (205-m.);
- O'qotar qurollar va o'q-dorilarni saqlash yoki tashish qoidalarini buzish (220-m. 3-4 q.);
- O'qotar qurollarni ro'yxatdan o'tkazish (qayta ro'yxatdan o'tkazish) muddatlarini yoki ularni hisobdan o'tkazdirib qo'yish qoidalarini buzish (221-m.);
- Pasport tizimi qoidalarini buzish (223-m.);
- Chegara zonasiga, shuningdek fuqarolarning kirishi va bo'lishiga vaqtincha cheklov belgilangan joylarga kirish hamda ularda yashash qoidalarini buzish (224-m.);
- O'zbekiston Respublikasida bo'lish qoidalarini buzish ma'muriy huquqbuzarliklari bo'yicha ishlarni ko'rib chiqadi va **jarima** ma'muriy jazo chorasini qo'llash vakolatiga ega. (225-m.)

1. Ma'muriy proses tushunchasi va xususiyatlari

Protess lotincha (protessus) so'zidan olingan bo'lib uning lug'aviy ma'nosi – qandaydir holatlarning, hodisalarning ketma-ketlikda almashinuvi, nimaningdir paydo bo'lishi, rivojlanishi, muayyan maqsad sari amalga oshiriladigan faoliyat, jarayonlarning yig'indisi"ni bildiradi. U kimyoviy, texnologik, biologik va ijtimoiy ko'rinishdagi protesslarga ko'ra tasniflanadi.

Ijtimoiy protessning tarkibida huquqshunoslarni qiziqitiruvchi huquqiy protess mavjud. Shu bilan birga, huquqiy tizimda protessual huquq ham mavjud

Huquqiy protess huquq tarmoqlariga xos quyidagi protessual huquq va protesslarni o'z ichiga oladi:

ma'muriy-protessual huquq va ma'muriy protess

jinoyat-protessual huquq va jinoyat protessi

fuqarolik-protessual huquq va fuqarolik protessi

xo'jalik-protessual huquq va xo'jalik protessi va boshqalar


Protessual huquq – huquqiy tizim normalarining bir qismidir. U jinoyatlarni tergov qilish, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik ishlarini, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni va Konstitutsiyaviy sud ish yurituvchi tartibida ko'riladigan ishlarni ko'rib chiqish va hal qilish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi




Ma'muriy protess – ma'muriy-protessual shaklda amalga oshiriladigan hamda ma'muriy-huquqiy aktlarni qabul qilish va ijro etish orqali ma'lum bir ishlarni hal etishga qaratilgan ijro organlarining hokimiyat faoliyatidir. Bu faoliyat ma'muriy huquqning protessual normalari bilan tartibga solinadi

ma'muriy protess (keng ma'noda) – butun davlat boshqaruvi faoliyatini o'z ichiga oladi

ma'muriy protess (tor ma'noda) – moddiy normalar sanksiyalarini qo'llash bo'yicha faoliyatni o'z ichiga oladi

2. Ma'muriy protsess prinsiplari, bosqichlari va ma'muriy protsess subyektlari





3. Ma'muriy-protsessual normalalar va munosabatlar


Ma'muriy-protsessual normalalar – bu vakolatli davlat organlari tomonidan o'rnatilgan, ijro etuvchi hokimiyat organlarining o'z vakolatlarini amalga oshirish jarayonida yakka tartibdagi va aniq ishlarni hal etish bo'yicha vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi xulq-atvor qoidalaridir

Ma'muriy-protsessual normalarning turlari



15-mavzu. MA'MURIY HUQUQBUZARLIKLAR TO'G'RISIDAGI ISHLARNI KO'RIB CHIQUISHGA VAKOLATI BO'LGAN ORGANLAR (MANSABDOR SHAXSLAR)

Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishga vakolatli organlar tizimi



Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishga vakolatli organlar:		
Sudlar	1	Ma'muriy ishlar bo'yicha sudyalari (245-m.)
	2	Xo'jalik sudlari (245 ¹ -m.)
	3	Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar (245 ⁴ -m.)
Komissiyalar	1	Ma'muriy komissiyalar (246-m.)
	2	Voyaga etmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiyalar (247-m.)
Davlat organlari, inspeksiyalar	1	Adliya organlari (245 ² -m.)
	2	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta'minlash departamenti organlari (245 ³ -m.)
	3	Ichki ishlar (milisiya) organlari (248-m.)
	4	Davlat yong'indan saqlash nazorati organlari (249-m.)
	5	O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi organlari (249 ¹ -m.)
	6	Temir yo'l transporti va metropoliten organlari (250-m.)
	7	Havo transporti organlari (251-m.)
	8	Suv transporti organlari (252-m.)

9	Davlat kichik hajmdagi kemalar inspeksiyasi organlari (253-m.)
10	Shahar va shaharlararo yo'lovchi tashiydigan avtomobil transporti va elektr transporti organlari (254-m.)
11	Mehnat bo'yicha davlat huquqiy va texnik inspektorlari (255-m.)
12	Mudofaa vazirligi organlari (256-m.)
13	Davlat sanitariya nazorati organlari (257-m.)
14	O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Milliy xavfsizlik xizmatining sanitariya nazoratini amalga oshiruvchi tibbiy xizmatlari (258-m.)
15	Davlat veterinariya nazorati organlari (259-m.)
16	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Er qarini geologik o'rganish, sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi organlari (260-m.)
17	Tabiatni muhofaza qiluvchi organlar (261-m.)
18	Bojxona organlari (262-m.)
19	O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligining davlat inspeksiya organlari (263-m.)
20	Davlat soliq organlari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo'linmalari (264-m.)
21	Nazorat-taftish bosh boshqarmasi organlari (264 ¹ -m.)
22	Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish organlari (265-m.)
23	Qishloq xo'jaligidagi mashinalar va qurilmalarning texnik holatini nazorat qiluvchi bosh davlat inspeksiyasi organlari (266-m.)
24	O'zbekiston Respublikasi Er resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasining organlari (266 ¹ -m.)
25	Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining «O'zsuvnazorat» respublika suv inspeksiyasi organlari (266 ² -m.)
26	Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligi ekinlari urug'larini sertifikatsiyalash va ularning sifatini nazorat qilish davlat markazi organlari (266 ³ -m.)
27	Davlat statistika organlari (267-m.)
28	Davlat probir nazorati organlari (268-m.)
29	Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish organlari (268 ¹ -m.)
30	Arxitektura va qurilish organlari (268 ² -m.)

Ichki ishlar (militsiya) organlari tomonidan ko'rib chiqiladigan huquqbuzarliklar	
I	O'z.Res. MJtKning 248-moddasining ikkinchi qismining 1-band tuman, shahar, shahardagi tuman va transportdagi ichki ishlar bo'limlari (boshqarmalar) boshliqlari yoki ularning o'rinbosarlari, shuningdek ichki ishlar organlari tizimidagi militsiyaning hududiy (transport) bo'linmalari boshliqlari quyidagi 20 ta modda bo'yicha huquqbuzarliklarni ko'rib chiqadi
1	Temir yo'l transportida harakat xavfsizligi qoidalarini buzish birinchi, ikkinchi, to'rtinchi, beshinchi qismlarini (113-m.)
2	Temir yo'l transporti vositalaridan foydalanish qoidalarini buzish (114-m.)
3	Uchish xavfsizligi qoidalarini buzish. birinchi, uchinchi va qismlarini (116-m.)
4	Transport vositalarining ichki jihozlariga shikast etkazish (121-m.)
5	Transportda belgilanmagan joylarda chekish (122-m.)
6	Transport vositalaridan axlat yoki boshqa narsalarni tashlab yuborish (123-m.)
7	Xavfli moddalar va ashyolarni transportda tashish qoidalarini buzish (142-m.)
8	Transportda chiptasiz yurish (144-m.)
9	Yo'lovchilarni chiptasiz tashish (145-m.)
10	Havo, temir yo'l, suv va avtomobil transportida yuklarning saqlanishini ta'minlash qoidalarini buzish birinchi va ikkinchi qismlarini (146-m.)
11	Avtomat telefonlarni shikastlantirish (156-m.)
12	Mayda bezorilik (183-m)
13	Maishiy shovqinga qarshi kurash talablarini buzish(192-m.)
14	Favqulodda holat tartibining talablarini buzish (204-m)
15	Favqulodda holat tartibi sharoitida jamoat tartibiga tajovuz qilish (205-m)
16	O'qotar qurollar va o'q-dorilarni saqlash yoki tashish qoidalarini buzish uchinchi va to'rtinchi qismlarini (220-m.)
17	O'qotar qurollarni ro'yxatdan o'tkazish (qayta ro'yxatdan o'tkazish) muddatlarini yoki ularni hisobdan o'tkazdirib qo'yish qoidalarini buzish (221-m.)
18	Pasport tizimi qoidalarini buzish (223-m.)
19	Chegara zonasiga, shuningdek fuqarolarning kirishi va bo'lishiga vaqtincha cheklov belgilangan joylarga kirish hamda ularda yashash qoidalarini buzish (224-m.)
20	O'zbekiston Respublikasida bo'lish qoidalarini buzish (225-m.)

III	O'z.Res. MJtKning 248-moddasi ikkinchi qismining 3-bandi Temir yo'l vokzallari va aeroportlardagi bo'linmalarning, ichki ishlar organlarining chet elga chiqish, kelish va fuqarolik bo'limlari (boshqarmalari)ning boshliqlari va ularning o'rinbosarlari quyidagi 1 ta modda bo'yicha huquqbuzarlik ishini ko'rib chiqadi
1	O'zbekiston Respublikasida bo'lish qoidalarini buzish (225-m.)
IV	O'z.Res. MJtKning 248-moddasi ikkinchi qismining 4-bandi Militsiya uchastkasi boshliqlari, militsiyaning uchastka katta inspektorlari va uchastka inspektorlari quyidagi 9 ta modda bo'yicha huquqbuzarliklarni ko'rib chiqadi
1	Transportda belgilanmagan joylarda chekish (122-m.)
2	Transport vositalaridan axlat yoki boshqa narsalarni tashlab yuborish (123-m.)
3	Transport vositalarining tovush chiqaruvchi va yorituvchi qurilmalaridan foydalanish qoidalarini buzish (maqsadsiz ovoqli signal berish qismida) (127-m.)
4	Shaharlarni va boshqa aholi punktlarini obodonlashtirish qoidalarini buzish (fuqarolarga nisbatan) (161-m.)
5	Jamoat joylarida spirtli ichimliklar ichish birinchi qismini (187-m.)
6	Maishiy shovqinga qarshi kurash talablarini buzish (192-m.)
7	O'qotar qurollarni ro'yxatdan o'tkazish (qayta ro'yxatdan o'tkazish) muddatlarini yoki ularni hisobdan o'tkazdirib qo'yish qoidalarini buzish (221-m.)
8	Pasport tizimi qoidalarini buzish 1-qismini (223-m.)
9	Chegara zonasiga, shuningdek fuqarolarning kirishi va bo'lishiga vaqtincha cheklov belgilangan joylarga kirish hamda ularda yashash qoidalarini buzish (224-m.1-q.)
V	O'z.Res. MJtKning 248-moddasi ikkinchi qismining 5-bandi Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi (Bosh boshqarmasi) boshlig'i, uning o'rinbosari, yo'l-patrol xizmatini tashkil etish va muvofiqlashtirish hamda ma'muriy amaliyot bo'limi boshlig'i, uning o'rinbosari, alohida muhim ishlar bo'yicha inspektor (ma'muriy amaliyot bo'yicha inspektor), ma'muriy amaliyot bo'linmasi (bo'limi) boshlig'i, uning o'rinbosari, ma'muriy huquqbuzarliklarga doir materiallarni ko'rib chiqish bo'yicha katta inspektor (inspektor), avtomototransport vositalarining texnik holati, ulardan foydalanish normalariga va qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat bo'limi (bo'linmasi) boshlig'i, avtomototransport vositalarining texnik holati, ulardan foydalanish normalariga va qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat guruhining katta inspektori, avtomototransport vositalarining texnik holati, ulardan foydalanish normalariga va qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat guruhining ma'muriy amaliyot bo'yicha inspektori, ular yo'qligida esa ichki ishlar bo'limi boshlig'i yoki uning o'rinbosari quyidagi 20 ta moddalar bo'yicha huquqbuzarliklarni ko'rib chiqadi
1	Transport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzish (125-m.)
2	Ko'zqusimon va tusi o'zgartirilgan (qoraytirilgan) nostandart oynali, shuningdek tevarak-atrofnii ko'rishni cheklaydigan qoplamali transport vositalaridan foydalanish (126-m.)
3	Transport vositalarining tovush chiqaruvchi va yorituvchi qurilmalaridan foydalanish qoidalarini buzish birinchi qismini (127-m.)

4	Haydovchilarning transport vositalarini piyodalar yo'lkalaridan yurgizishi, yo'l belgilari va yo'l harakatining boshqa qoidalariga talablariga rioya etmasligi birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlarini (128-m.)
5	Transport vositasini boshqarish vaqtida haydovchilarning telefonda foydalanishi birinchi qismini (128 ¹ -m.)
6	Transport vositasini boshqarish paytida monitordan (displaydan) tele-, videodasturlarni tomosha qilish uchun foydalanish va transport vositasiga o'zboshimchalik bilan monitor (display) o'rnatish birinchi va ikkinchi qismlarini (128 ² -m.)
7	Transport vositalari haydovchilarining belgilangan harakat tezligini oshirib yuborishi birinchi va ikkinchi qismlarini (128 ³ -m.)
8	Transport vositalari haydovchilarining svetoforming taqiqlovchi signaliga yoki yo'l harakatini tartibga soluvchining taqiqlovchi ishorasiga bo'ysunmasdan o'tishi birinchi va ikkinchi qismlarini (128 ⁴ -m.)
9	Transport vositalari haydovchilarining xalaqit berishi yoki avariya holatini yuzaga keltirishi, yo'ning qarama-qarshi harakatlanish uchun mo'ljallangan tomoniga yoki bo'lagiga chiqishi birinchi va ikkinchi qismlarini (128 ⁵ -m.)
10	Transport vositalari haydovchilarining to'xtash yoki to'xtab turish qoidalarini buzishi (128 ⁶ -m.)
